FARGONA VILOYATI MORFOLANDSHAFTLARNING HOSIL BO‘LISHIDAGI ASOSIY OMILLAR

Xoliqov R. Y.
Farg‘ona davlat universiteti professori
Sirojddinov X. I.
Farg‘ona davlat universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Farg‘ona viloyati hududidagi landshaftlarning morfologik tuzilishi, morfolandshaftlarning hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar va jarayonlar tahlil qilingan.*

Kalit sozlar; *Farg‘ona viloyati, morfolandshaft, tabiiy-geografik omillar, relyef, iqlim, geologik tuzilish, litologik tarkib,*

Kirish Landshaftlarning morfologik tuzilishidagi farklar ularning tabaqalanishiga sabab bo‘ladi. Landshaftlarning ichki tuzilishidagi ichki xilma-xillik va muvofiqlik uning morfologik tuzilishi hisoblanib pozitsion joylashuvi, geologik-geomorfologik omillar ta’sirida makoniy va vaqt ko‘lamida tabaqalanadi. Landshaftlarning morfologik tabaqalanishi masalalari G.F.Morozov, YA.S.Berg, Y.G.Ramenskiy, S.V.Kalesnik, N.A.Solnsev, A.A.Vidina, I.I.Mamaylar tomonidan mukammal o‘rganilgan. Ko‘pchilik olimlarning e’tirof etishiga ko‘ra landshaftlarning ichki ya’ni morfologik tabaqalanishida geologik-geomorfologik omillar asosiy o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, litologik asos yetakchi omil sifatida iqlimiy, gidrologik, antropogen omillar bilan birgalikda morfologik tuzilmalarda tuproq hosil bo‘lishi, beogen jarayonlarda ishtirok etadi va landshaftlarning o‘ziga xos morfologik yaruslarini hosil qiladi. Landshaftlarning morfologik tabaqalanishi uning strukturaviy tuzilishini hosil qiladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. V.A.Nikolayevning[1979] fikriga ko‘ra landshaftlarning strukturaviy tuzilishida 3 ta tip ajratiladi: 1.Geokomponentli (landshaftlarning vertikal tuzilishiga ko‘ra). 2.Moddiy- makoniy (ifodalarni fizik kimyoviy holatiga ko‘ra) 3.Makoniy-sig‘imli (landshaftlarni vertikal profiliga ko‘ra)

Landshaftlarning morfologik tabaqalanishida, ularning ichki tuzilmalarini iyerarxik tartibini shakllantirishda bir qancha ilmiy metodik yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularning ichida N.A.Gvozdetskiy, A.G.Isachenko va V.A.Nikolaevlar tomonidan ishlab chiqilgan regional va tipologik yo‘nalishlar bilan birga B.B.Polinov, A.I.Perelman, M.A.Glazovskaya, I.I.Mamaylar tomonidan ishlab chiqilgan geokimyoviy landshaft yo‘nalishlari bugungi kunda eng ko‘p e’tirof etiladigan ilmiy ishlanmalar hisoblanadi. P. Xolmatovning (2022) fikriga ko'ra landshaftlarning hosil bo'lishi va tabaqalanishida geologik-geomorfologik omillar bilan birga, iqlimiy, gidrologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra landshaftlarning morfologik birliklarini ajratishdagi qator qonuniyatlar ichida muvofiqlik, tashqi strukturalari bilan mos kelishi va ichki belgilari bilan ajralib turishi kabi holatlar ham amal qiladi. Bularga masalan, morfologik birliklarning muayyan geometrik figura (shakl)lar hosil qilishi, ularning mozaik mutanosibligi bilan birga ichki tafovutlarini ham hisobga olishimiz talab etiladi. Aksariyat holatlarda tavsiya etilayotgan klassifikatsion sxemalarda landshaftlarning morfologik birliklarini ajratishda ularni dinamik tizim ekanligi, har qanday morfologik tuzilmalar funksional dinamik rivojlanishda bo‘lishligini hisobga olinishi zarur. Shunga ko‘ra N.A.Solnsev (1991) landshaftlarni dinamik hosilalarini geografik zvenolar deb atagan.

Tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Farg‘ona viloyatining hududida morfologik tuzilishiga ko‘ra bir xil, lekin pozitsion joylashuviga ko‘ra xilma-xil landshaftlar hosil bo‘lgan.

Farg‘ona viloyatining landshaft tuzilmalari ham uzoq davom etgan geologik-tektonik jarayonlar, iqlimiy va gidrologik omillar ta’sirida shakillangan. Yetakchi omil sifatida esa morfologik asos viloyat landshaftlarining tabaqalanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Farg‘ona viloyati hududida lanshaftlarning morfologik tabaqalanishida gipsometrik chegaralar nafaqat morfolitogen asosni, balki ular hosil qilgan landshaft tuzilmalarini chegaralarni ham belgilab beradi. Viloyatning So‘x tumani va Shohimardon qishlog‘i anklav zonalar hisoblanib 2000-2500 m, gacha bo‘lgan o‘rta tog‘ landshaft yaruslarini hosil qiladi. Litologik tarkibini devon, toshko‘mir, bo‘r davri yotqiziqlari tashkil etadi. Geomorfologik jihatdan erozion-denudatsion, akkumulyativ relef shakllari keng tarqalgan, pozitsion holatiga ko‘ra shimoliy ekspozitsiyalar katta maydonlarni egallab 20-30 km radiusda tog‘ oldi zonasi bilan tutashadi. Yangi tektonik harakatlar hosil qilgan relyef shakllari surilmalar ko‘rinishida So‘x va Shohimardonsoy daryolarining o‘zanlarida chuqur va tor vodiylar tog‘ etaklarida kengayib qayir va qayirusti terassalarini hosil qilgan. Tog‘ oldi zonasi tog‘lar bilan tekisliklar o‘rtasidagi oraliq zonani tashkil qilib aloxida-aloxida ko‘tarilgan geologik tuzilmalardan iborat. Farg‘ona viloyatining janubiy qismida Sho‘rsuv Quvasoy yo‘nalishida tog‘ oldi zonasi 12-16 km. li radiusda joylashgan baland adirlar ko‘rinishidagi relefning 5-pog‘onasidagi past tog‘lar va adirlar zonasini tashkil etadi. Farg‘ona viloyatining tog‘oldi zonasi janubi-g‘arbiy qismida Burgandi va Kampirqoq tog‘lari hududida yaqqol ifodalanadi. Ularning balandligi 1200 m. va undan ortiq bo‘lib ko‘pchilik tadqiqotchilar baland adirlar zonasiga kiritishadi. Litologik tarkibini kuchli sementlashgan konglomeratlar ohaktoshlar tashkil etib yura, bo‘r, toshko‘mir davrining yotqiziqlari, paleogen davrining qizil va sariq glinalari landshaftlarning litogen asosini tashkil etadi. Ularning tarkibida organik yotqiziqlarning ko‘pligi dengiz muhitida uzoq vaqt qolib ketganligi bilan bog‘liqdir. Yog‘in sochin miqdorining kamligi sharoitida arid denudatsion jarayonlar kuchli nurashni yuzaga keltiradi. Qurilish materiallari (gips, asbest, keramzit ohaktosh) va uncha katta bo‘lmagan neft va gaz konlari hududning qurilish va yoqilg‘i sanoati negizida o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lgan.

Farg‘ona viloyatining janubidan o‘rab olgan adirlar halqasi alohida morfolandshaftlarni tashkil etadi. G‘arbdan sharqqa qarab Sho‘rsuv, Qapchig‘ay, Chimyon, Quvasoy, Arsif, Tolmozor adirlari 500-800 m. dan -100-1200 m. gacha bo‘lgan baland va past adirlar zonasini tashkil qilib uchlamchi davrning oxiri va to‘rtlamchi davrda ko‘tarilgan. Adirlar Farg‘ona vodiysi uchun tipik cho‘l landshaftlari hisoblanib erozion-denudatsion genezisli daryo va soyliklarning geologik faoliyati tufayli kuchli parchalangan, insonlar tomonidan kuchli o‘zlashtirilgan bog‘-dala tipidagi madaniy landshaftlar hisoblanadi. Landshaftlarning morfolitogen asosini to‘rtlamchi davrning So‘x va Toshkent yotqiziqlari tashkil qilib baland adirlar konglomeratli sementlashgan jinslar, shag‘alli, lyossli jinslar va alevrolitlardan iborat. Quyi adirlar ko‘proq Toshkent Mirzacho‘l qatlamlaridan iborat bo‘lib kuchsiz sementlashgan shag‘alli jinslar, alevrolitlar, yuza qismida qisman lyossli jinslardan tashkil topgan. Litogen asosning xilma-xilligi tufayli landshaftlarning morfologik tabaqalanishi kuchli, geteorolit landshaftlar murakkab urochishalar va fatsiyalar guruhini hosil qiladi.

Farg‘ona viloyati landshaftlarining hosil bo‘lishi va morfologik tabaqalanishida So‘x, Shohimardon, Isfayram daryolarining ahamiyati butun hudud bo‘ylab kattadir. Mazkur

daryolarning vodiylari yo‘nalishi janubdan shimolga tomon davom etib submeridianal yo‘nalishda hosil bo‘lgan tektonik yoriqlarning yo‘nalishiga mos keladi. Shunga ko‘ra daryo va soyliklarning morfologiyasi hududning tektonik tuzilishiga mos ravishda flyuvial genezisli landshaftlarni qiyofasini shakillantirgan. Daryo va soyliklar morfologiyasi antklinal va sinklinal strukturalarni kesib o‘tish jarayonida o‘ziga xos morfolandshaftlarni hosil qilgan. Masalan, So‘x daryosi antklinal strukturalarni kesib o‘tish joyida chuqur o‘zanlar hosil qilgan. Sinklinal strukturalar orqali o‘tish joyida esa daryo o‘zani kengayib, qayir va terrasalar hosil qiladi, daryo o‘zani tarmoqlarga bo‘linib, quruq o‘zanlar (shleyflar) hosil bo‘lgan.

Konussimon yoyilmalar Farg‘ona vodiysi kabi viloyat hududida ham o‘ziga xos landshaftlar hosil qilgan. Chunki daryo va soyliklar adirlar zonasini kesib o‘tib delyuvial, prolyuvial va alyuvial jinslarni turli tartibda yotqizgan. Shunga ko‘ra konussimon yoyilmalarning yuqori, o‘rta va quyi qismlari landshaftlarning morfologik tuzilmalari litologik tarkibi, uning qalinligi, egallagan maydoni bo‘yicha farqlanuvchi landshaftlardan tashkil topgan. Konussimon yoyilmalar va ularning o‘rtalarida, etaklarida qiya tekisliklar joylashgan bo‘lib ularni adirlararo va adir orti qiya tekisliklari ham deb ataladi. Ularning morfolitogen asosini to‘liq to‘rtlamchi davrning shag‘alli, gilli, qumoq, qumloq yotqiziqlari tashkil etib akumulyativ jinslar turli qalinlikda, lekin yuza qatlamlar bir tekisda joylashganligi uchun landshaftlarni morfologik tabaqalanishida murakkablik yo‘q. Vertikal tabaqalanishga nisbatan gorizontal tabaqalanish katta maydonlarni tashkil etadi. Hududning to‘liq o‘zlashtirilganligi qishloq xo‘jaligi, seliteb va texnogen landshaftlar tabiiy landshaftlarning morfologik tuzilishini o‘zgartirib yuborgan.

Xulosa. Farg‘ona viloyati hududining Sirdaryogacha bo‘lgan shimoliy-g‘arbiy qismlari, Namangan va Andijon viloyatlarining Markaziy Farg‘onaga qarashli hududlari bilan chegaralangan pastqam relefli, aloxida do‘ng va do‘ng-marza qumli tepaliklardan iborat maydonlari va ularning landshaft hosil qiluvchi omillari yangi tektonik harakatlar tufayli Sirdaryoning eski o‘zanini ochilib qolishi daryoning shimol tomonga siljishi bilan bog‘liqdir. Qadimiy o‘zan Sirdaryodan 30-40 km. janubroqdan o‘tgan bo‘lib, uning qurishi natijasida o‘zandagi qumliklar shamol ta’sirida ko‘chib, katta maydonlarga yotqizilgan. Sirdaryo hozirgi holatiga nisbatan birmuncha katta va sersuv bo‘lib, uning barcha irmoqlari deyarli suvini daryoga quygan. Bundan taxminan 3000-3500 yil avval Sirdaryoning o‘zan, qayir va qayir usti terassalari shakllangan. Shuning bilan birga Markaziy Farg‘onaga So‘x, Shohimardonsoy, Isfayram daryolarining konus yoyilmalarining periferik qisimlari kirib litologik tarkibini gilli, qumoq va qumloq jinslar tashkil qiladi. Markaziy Farg‘onaning viloyatga tegishli maydonlarining landshaftlarini hosil bo‘lishida gidrogeologik holati ham muhim o‘rin egallaydi. Drenaj holati og‘ir yer osti suvlarining vertikal harakati faol va gorizontal oqim sust bo‘lganligi uchun yarim gidromorf va gidromorf landshaflar shakllangan. Qumli maydonlarning deyarli 80% qismi tekislangan va qishloq xo‘jaligi maydonlari va seliteb landshaftlar hosil qilingan. Bunday jarayon keyingi 60-70 yil ichida Markaziy Farg‘ona landshaftlarining dinamikasida kuchli morfologik o‘zgarishlarga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.A. Nikolayev. Protcessı recheskogo landshaftovedeniya. M., 1979. – 168 s.
2. N.A. Solntcev. Sistemnaya organizatciya landshaftov. M., 1981. 239 s.
3. R.U. Xodjibaeva, Yu.Yu. Idrisova. Markaziy Farg‘ona landshaftlarining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari. Monografiya. Farg‘ona nashriyoti. 2022-y, 80 b.